

VAZIR O'RINBOSARI INSTITUT YOSHLARI SHAROITI BILAN TANISHMOQDA



Ayni daqiqalarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari S.Buzrukxonov boshchiligidagi vazirlik vakillari O'zbekiston davlat san'at madaniyat institutida bo'lib, yoshlarning talabalar turar joyidagi sharoiti bilan tanishdi.



Vazir o'rinbosari talabalar turar joyida yoshlarning dastlabki o'qishdan olgan taassurotlari va ularni qiziqtirayotgan savollarga javob berdi.



Shuningdek, 2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan sobiq mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi, institutning "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi" ta'lim yo'nalishiga grant asosida qabul qilingan talaba Rahimjonov Isfandiyor Mahmud o'g'li bilan suhbatlashib, unga yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.



Hozirgi kunda institutning talabalar turar joyida jami 550 nafar o'g'il-qizning yashashi uchun to'liq sharoitlar yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu xonalarga uzoq hududlardan tashrif buyurgan 350 nafar talaba joylashtirilgan. Ushbu talabalar uchun yana qo'shimcha 150 o'rinni o'z ichiga olgan 2 yarusli kravatlar o'rnatilmoqda.

Matbuot kotibi